

## **Umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchilari uchun**

### **QO’LLANMA**

**Dars rejasi:**

**Mavzu: “Jamiyatda inson huquqlarining o‘rnii”**

**Fan: Davlat va huquq asoslari**

**Dars davomiyligi:** 45 daqiqa

**Sinf:** 10-sinf

---

**Dars maqsadi:**

1. Inson huquqlarining jamiyatdagi o‘rnii va ahamiyatini tushuntirish.
  2. Shaxs va jamiyat manfaatining uyg‘unligi, inson huquqlarining ta’rifi va ularning jamiyatdagi ahamiyatini tushuntirish.
  3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining inson huquqlarini kafolatlashga bo‘lgan rolini yoritish.
  4. Shaxsning huquqiy maqomi va teng huquqlik haqidagi tushunchalarni shakllantirish.
  5. Zo‘ravonlikning oldini olish va gender tengligi kabi muhim huquqiy va ijtimoiy masalalarni o‘rganish.
- 

**Kutilayotgan natijalar:**

1. O‘quvchilar inson huquqlarining jamiyatdagi ahamiyatini anglaydilar.
  2. Jamiyat, shaxs va inson huquqlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tushunishadi.
  3. O‘quvchilar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining inson huquqlarini kafolatlashga bo‘lgan mas’uliyatini tushunishadi.
  4. Shaxsning huquqiy maqomi va tenghuquqlik tushunchalariga bog‘liq masalalarga yondoshishadi.
  5. Gender tenglik va zo‘ravonlikning oldini olish masalalarini muhokama qiladi va ularning ahamiyatini bilishadi.
- 

**Metodlar:**

- **Suhbat:** O‘quvchilar bilan inson huquqlari va jamiyat manfaatining uyg‘unligi haqida fikr almashish.
  - **Hayotiy vaziyat (keys):** Inson huquqlariga zid bo‘lgan holatlarni tahlil qilish va yechim topish.
  - **Blits so‘rov:** Savol-javob orqali o‘quvchilarning bilimlarini tekshirish.
  - **Hikoyalar:** Inson huquqlari va gender tenglikka oid real voqealarni o‘qish va tahlil qilish.
  - **Bilimlarni mustahkamlash:** Mavzu bo‘yicha savollar va bahsmunozaralar o‘tkazish.
- 

### Foydalananadigan materiallar:

- **Taqdimot:** Inson huquqlari, gender tenglik, zo‘ravonlikning oldini olish, Konstitutsiyaga oid ma’lumotlar.
  - **Kartochkalar:** Qulay va qisqa ma’lumot berish uchun savollar, inson huquqlari haqidagi hikoyalar.
- 

### Dars qismlari:

#### 1. Kirish (5 daqiqa)

- **O‘qituvchi:**

- “Bugungi darsda inson huquqlarining jamiyatdagi o‘rnini va ahamiyati haqida gapiramiz. Inson huquqlari jamiyat taraqqiyoti va tinchligi uchun asosiy ahamiyatga ega. Insonning huquqlari jamiyatning barqarorligi va adolatini ta’minlaydi.”
- Savol: “Inson huquqlari deb nimani tushunasiz?”

#### 2. Inson huquqlari va jamiyat (10 daqiqa)

- **Ta’rif:**

- “Inson huquqlari – bu har bir insonning qadr-qimmati va yoshidan qat’i nazar, qonuniy asosda himoya qilinadigan huquqlar majmuidir. Ular shaxsning qadr-qimmatiga, adolatli va teng huquqlarga ega bo‘lishni ta’minlaydi.”

- “Jamiyat va shaxsning manfaatlari o‘rtasida uyg‘unlik jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta’minlaydi.”

- **Savol:** “Shaxsning huquqlari va jamiyat manfaatlari o‘rtasidagi uyg‘unlikni qanday ta’minalash mumkin?”

#### 3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va inson huquqlari (10 daqiqa)

- **Ta’rif:**

- “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi inson huquqlarini kafolatlaydi va ularni himoya qilishni davlatning asosiy vazifasi sifatida belgilaydi.”
- “Konstitutsiyada inson huquqlariga oid asosiy prinsiplar: har bir shaxsning qadr-qimmati, teng huquqliligi va odil sudlovga bo‘lgan huquq va boshqa huquqlar.”
- Savol:** “Konstitutsiya inson huquqlarini qanday kafolatlaydi?”

#### 4. Shaxsning huquqiy maqomi va teng huquqlik (8 daqiqa)

- Ta’rif:**

- “Shaxsning huquqiy maqomi uning jamiyatdagi o‘z o‘rni va huquqlarini belgilaydi. Har bir shaxsning teng huquqli bo‘lishi jamiyatning asosiy tamoyillaridan biridir.”

- Teng huquqlik:** “Barcha insonlarga bir xil huquqlar va imkoniyatlar taqdim etilishi tushuniladi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasi ikkinchi qismida quyidagicha belgilangan: “O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar”. Gender tengligi ham shulardan biri hisoblanadi.”

- Savol:** “Shaxsning huquqiy maqomi va teng huquqlikning jamiyatdagi o‘rni qanday?”

#### 5. Zo‘ravonlikning oldini olish va gender tenglik (7 daqiqa)

- Ta’rif:**

- “Zo‘ravonlik – bu shaxs, jamoalar yoki jamiyatlarga nisbatan qasddan yoki zarar keltirish maqsadida kuch ishlatish, tahdid qilish yoki jismonan, ma’naviy, ruhiy tarzda zarar yetkazishdir.”

- “Gender tenglik - bu ayollar va erkaklar uchun bir xil huquqlar, imkoniyatlar va munosabatlarni ta’minlash konsepsiyasidir. Gender tenglik jamiyatda har qanday insonga, ularning jinsidan qat’i nazar, bir xil imkoniyatlar, huquqlar va resurslarga ega bo‘lishni nazarda tutadi. Bu tushuncha jamiyatdagi ijtimoiy adolatni ta’minlaydi.”

- Misollar:** O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 58-moddasida “Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlaydi” deb begilangan.

- Savol:** “Gender tenglikka oid qonunlar amalda qanday ishlaydi?”
- “Zo‘ravonlikning oldini olishda qanday choralar ko‘rish mumkin?”

#### 6. Hayotiy vaziyat (keys) (5 daqiqa)

- Vaziyat:** Nodira (17 yosh) məktəbni yakunlagan və uning orzusı murabbiy bo‘lish. Unda shu kasbga mos keladigan malakasi və qobiliyatlari bor. Bir kuni Nodira o‘z shahridagi sport klubiga ishga ariza bergani boradi, lekin klubning rahbariyati unga “qizlar sport bo‘yicha murabbiy bo‘lishi kerak emas”, deb rad javobini

beradi. Ushbu qaror jamiyatdagi genderga bog‘liq stereotiplarga asoslanib olingan bo‘lib, Nodiraning ishga qabul qilinmasligiga sabab bo‘ladi.

◦ “Aytingchi, agar jamiyatda bir shaxs gender asosida diskriminatsiyaga (kamsitish) uchrasa, bu qanday salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin?”

• **Savol:** “Bu holat, Sizningcha, ma’naviy zo‘ravonlik hisoblanadimi?”

## **7. Blits so‘rov (3 daqiqa)**

• **Savollar:**

1. “Inson huquqlarining jamiyatdagi ahamiyati nimada?”
2. “Zo‘ravonlikning oldini olish uchun qanday choralar ko‘rish kerak?”
3. “Gender tenglik jamiyatda qanday ahamiyatga ega?”

## **8. Yakuniy xulosa (2 daqiqa)**

• **O‘qituvchi:**

◦ “Jamiyatda inson huquqlarining himoyasi jamiyatning barqarorligi va rivojlanishining asosidir. Bizning asosiy vazifamiz – har bir shaxsga teng huquqlar va imkoniyatlar taqdim etilishini ta’minlash.”

---